

TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7820972>

Azizova Rayyona

Mamasoliyeva Intizor

Andilon davlat pedagogika institute

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bungungi kundagi ta'limning muhim vazifalari ko'rib chiqilgan. Ta'lim sifatini oshirishning funksiyasi amaliy yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Interfaol metod, og'zaki va yozma xulosalar, faollashtiruvchi metodlar, mustaqil fikrlashga undovchi metodlar, baxs-munozar, o'qituvchi – o'quvchi – o'quvchilar guruhi, qiziqishlarni kuchaytish, Sinkveyn tuzish, mantiqiy chalkashlik.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются важные задачи образования на сегодняшний день. Практически объясняется функция повышения качества образования.*

Ключевые слова: *Интерактивный метод, устные и письменные выводы, активизирующие приемы, приемы поощрения самостоятельного мышления, дебаты, дискуссия, группа «учитель-ученик-ученик», активизация интереса, создание синквейна, логическая путаница.*

Abstract. *This article considers the important tasks of education today. The function of improving the quality of education is explained practically.*

Keywords: *Interactive method, oral and written conclusions, activating methods, methods of encouraging independent thinking, debate, discussion, teacher-student-student group, interest enhancement, Cinquain creation, logical confusion.*

“Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi”

Shavkat Mirziyoyev

KIRISH

Davlatimiz rahbari avvalo maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta'kidlaydi. Bu borada Finlandiya tajribasi misol qilib keltirilgan.

ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim fan, texnika va texnologiyaning iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim va kasb-hunar ta'limi dasturlarini tubdan o'zgartirish; uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish ”

Dunyodagi zamonaviy o'quv dasturlari, o'qitish metodikalarini o'rganib, yurtimiz umumta'lim maktablarida joriy qilish prezidentimiz tomonidan ta'kidlangan. Xalq ta'limi vazirligi ushbu tajriba asosida Milliy o'quv dasturini ishlab chiqib 2021-2022-o'quv yilidan boshlab ta'lim jarayoniga sinov tariqasida tatbiq etish vazifasini qo'ydi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Bu ishlar bugungi kunda o'z natijasini ko'rsatmoqda. Bizning ta'lim tizimimizga ta'lim sifatini oshiruvchi, o'quvchilarga kuchli motivatsiya beruvchi interfaol metodlar o'z o'rniga ega. Mazkur metodlarni ta'lim sohasida qo'llanilishi shubhasiz Finlandiya singari ta'lim sifati yuqori bo'lgan davlatlar qatorida bo'lishiga zamin yaratadi. Va shu bilan birga ta'lim tizimidagi ba'zi bir kamchiliklarga ham yechim bo'lishi mumkin. Jumladan, o'quvchilarning erkin fikrlay olmasligi ta'lim jarayonidagi bir kemptiklik bo'lsa, uning to'ldiruvchisi sifatida interfaol metodlarni qo'llash foydadan holi emas. O'quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari etadigan darajada umumlashtirishlar qilishlari, shuningdek, og'zaki va yozma xulosalar qilishga o'rganishlari kerak.²¹

Interfaol metod bu o'zi nima? Bu ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metod bizga nima uchun kerak? Bu savolga javob shundan iboratki, fanlarni o'qitish jarayonida bu metodlardan foydalanish o'z xususiyatiga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlash doirasini kengaytiradi. Hamda o'qituvchi tomonidan qo'yilgan muammoli savollar, muammoli vaziyatlarga o'quvchi – talabalar tomonidan to'g'ri yechimni topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.²²

Amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o'rganishlariga ko'ra shaxsning tabiiy fiziologik- psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o'zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya'ni shaxs manbani o'zi o'qiganida 10 %; ma'lumotni eshitganida 20 %; sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rganida 30 %; sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitganida 50 %; ma'lumot (axborot)larni o'zi uzatganida (so'zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 %; o'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot)larni o'z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % xajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega.²³

TADQIQOT NATIJALARI

²¹ N. Abdullayeva Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasi predmeti va maqsadi ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES 111-bet.

²² Абдуллаева Нафиса Основы развития продуктивного мышления учащихся Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития Москва - 2012. 326-327.

²³ Интерфаол методлар: мохияти ва қўпланилиши / Методик йўлланма. Тузувчилар: Д.Рузиева, М.Усмонбоева, З.Хорликова. - Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ нашриёти, 2013. - 136 бет.

Shunga ko'ra interfaol o'qitish "ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari: o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan xamkorlik, qizg'in baxs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – o'quvchi – o'quvchilar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va ko'llab - quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruxiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi"²⁴


Bu metodlardan ta'lim jarayonida foydalanish hozirgi rivojlanayotgan, ya'ni taraqqiyot sari ketayotgan bir davrda juda katta ahamiyatga ega. Ulardan ta'lim jarayonida foydalanish o'quvchilarni darsdagi faoliyatlarini faollashtiradi hamda qiziqishlarini kuchaytiradi. Interfaol metodlar ham uzluksiz ta'lim sohasidagi islohotlardan biri deb hisoblashimiz mumkin.

MUHOKAMA

Interfaol metodlarni ba'zilarini misol tariqasida ko'rib chiqamiz:

Sinkveyn tuzish – (fr.a "besh qator") murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir necha so'z orqali yaqqol, yorqin ifodalash malakasi bo'lib, bu jarayon mavzuni puxtaroq o'zlashtirish, ma'lumotlarni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn (fr.a "besh qator") ma'lumotlarni sintezlash (alohida ma'lumotlar asosida yaxlit g'oyalarni shakllantirish)ga yordam beradigan qofiyasiz she'r bo'lib, u asosida o'rganilayotgan mavzu (tushuncha, hodisa, voqea)larga oid ma'lumotlar to'planadi; har bir o'quvchi ushbu ma'lumotlar yig'indisi (qofiyasiz she'r)ni o'z so'zlari bilan turli variant yoki nuqtai nazarlar orqali ifodalash imkoniyatiga ega (1-rasm).



1-

rasm

“Beshinchisi ortiqcha” metodi

²⁴ У.И.Иноятгов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева. Д.Иногомova Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Методик қўлланма.. - Тошкент: Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, 2012. - 122-бет.

O'quvchi (talaba)larning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

1) o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan tushunchalar tizimini shakllantirish;

2) hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita,...) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;

3) o'quvchi (talaba)larga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

4) o'quvchi (talaba)larni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tish, ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslash talab qilinadi).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ko'rsata va asoslay olish o'quvchi (talaba)larda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini dalillash tengdoshlarning fikrlari va shaxsiy g'oyalarni o'zaro taqqoslash ko'nikmalarini ham shakllantirishga imkon beradi (2-rasm).



2-rasm

Mantiqiy chalkash zanjir metodi:

- O'quvchi – talabalar bir nechta kichik guruhlarga birikadilar;
- Kichik guruhlarga chalkash ma'lumotlarni o'zida ifodalagan tarqatma materiallar beriladi;
- Topshiriqlarni bajarish uchun vaqt hajmi (5 daqiqa) belgilanadi;
- Kichik guruh tarqatmali materialda ifodalangan matndagi mantiqiy xato va chalkashliklarni aniqlab, uzilgan zanjirni “ulash”ga harakat qiladi;
- Belgilangan vaqt yakunlangach, har bir guruhdan bir nafar vakil jamoani topshiriq mazmuni va guruhning javoblari bilan tanishtiradi;
- Jamoada guruhlarning javoblari yuzasidan muhokama tashkil etiladi;
- O'qituvchi jamoaning fikriga tayanib guruhlar ishini baholaydi.

Mantiqiy chalkash zanjir metodidan 4-sinf Musiqa fanida ham foydalanish mumkin.²⁵ P.Mo'minnig "Shaftoliga savolim" qo'shig'i notasiga tadbiiq qilishumiz mumkin. 3-rasmda notalar to'liq berilgan.

SHAFTOLIGA SAVOLIM

P. Mo'min she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

Quvnoq

Shaf - to - lim, oh, shaf - to - lim, oh, shaf - to - lim, oh, shaf - to - lim,
Qi - zi - lu oq, qi - zi - lu oq, qi - zi - lu oq
shaf - to - lim. Ham - ma men - day se - va - di,
Pish - gan - dama - za bo - lim. Shaf - to - lim.
Shaf - to - lim.

3-rasm.

Mantiqiy chalkash zanjir asosida qismlarga bo'lim beriladi. (4-rasm)

1. Qi - zi - lu oq, qi - zi - lu oq, qi - zi - lu oq
2. Shaf - to - lim.
3. Shaf - to - lim, oh, shaf - to - lim, oh, shaf - to - lim, oh, shaf - to - lim,
4. Pish - gan - dama - za bo - lim. Shaf - to - lim.

SHAFTOLIGA SAVOLIM

P. Mo'min she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

5. **Quvnoq**

6. shaf - to - lim. Ham - ma men - day se - va - di,

4-rasm

O'quvchi – talabalar mantiqiy chalkashlikni topadilar.

Boshlang'ich sinflarda musiqa darslarini olsak, murakkab mavzularni yoritishda matematik bilimlarning o'rnini bilinadi. Misol tariqasida 4-sinf Musiqa darsligidagi murakkab mavzular matematik tushunchalarga asoslanganligini ko'rib chiqamiz.

²⁵ O.Ibrohimov MUSIQA 4-sinf uchun darslik Ga'fur G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi Toshkent-2017 10-bet.

Musiqa 4-sinf darsligidagi “Ton va yarim ton” mavzusida matematik tushunchalardan butun va butunning yarmi tushunchalari haqida fikr yuritiladi.

XULOSA

Musiqa tovushlarining bo'lgan ikki orasida turlicha masofa mavjud. Bu masofa ton va yarim ton bilan o'lchanadi. Bunda ton ikkita yarim tonlikka teng bo'lsa, ikkita yarim ton bir tonni tashkil etadi. Ton va yarim tonlikni yaqqol tasavur etish uchun pianino klavishlariga qaraladi. O'rtasida qora klavish bo'lgan oq klavish oralig'i bir tonga teng bo'ladi. Aksincha qora klavish bo'lmagan ikki oq klavish oralig'i yarim tonni tashkil etadi.²⁶

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarni mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish, o'z fikrlarini mustaqil bayon qila olish, egallagan bilimlarini ijtimoiy faoliyatlarida qo'llash hamda ta'limning ikkinchi bosqichida o'qishni davom ettirish uchun matematik tayyorgarlikni amalga oshirishga xizmat qiladi.²⁷

REFERENCES:

1. N. Abdullayeva. Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasi predmeti va maqsadi ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES 111-bet.
2. N Abdullayeva, R Azizova. Science and innovation [2,70-b.]. Science And Innovation International Scientific Journal Volume 1 Issue 8 Uif-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337
3. O.Ibrohimov. MUSIQA 4-sinf uchun darslik Ga'fur G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi Toskent-2017 10-bet.
4. H.A. Абдуллаева. Кичик ёшдаги ўқувчиларни билиш фаоллигини оширишда геометрик масалаларнинг ўрни - Scientific progress, 2022 225-230b
5. Абдуллаева Нафиса. Основы развития продуктивного мышления учащихся Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития Москва - 2012. 326-327.
6. Интерфаол методлар: мохияти ва кўпланилиши / Методик йўлланма. Тузувчилар: Д.Рузиева, М.Усмонбоева,
7. З.Хорликова. - Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ нашриёти, 2013. - 136 бет.
8. У.И.Иноятлов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева. Д.Иногомova Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Методик кўлланма.. - Тошкент: Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, 2012. - 122-бет.

²⁶ N. Abdullayeva, R. Azizova SCIENCE AND INNOVATION [2,70-b.]. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 1764

²⁷ H.A. Абдуллаева КИЧИК ЁШДАГИ ЎҚУВЧИЛАРНИ БИЛИШ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШДА ГЕОМЕТРИК МАСАЛАЛАРНИНГ ЎРНИ - Scientific progress, 2022 225-230b